
"MEZON" TAJRIBASI



MARRA 60 TSENTNER

O'tgan xo'jalik yilida yangi usul, ya'ni gektarida 250 ming tupgacha ko'chat qoldirib, dehqonchilik qilgan „ Mezon" fermer xo'jaligi gektaridan 52 tsentnerdan paxta terib olgandi. „ Mezon" tajribasi bo'yicha viloyat seminari o'tkazildi. Tuman sektor rahbarlari, fermerlar kelishib, yetishtirilgan hosilni ko'rishgandi.

Joriy yilda 48 gektar maydonda S-8290, 18 gektar maydonda yangi S-6570 navli paxta gektarida 220-250 ming tup ko'chat bilan yetishtirildi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan „ Mezon" fermer xo'jaligi paxtazorlarida bo'ldi. Fermer xo'jaligi rahbari Vohidjon Obidov bilan suhbatlashdi. Fermer bu yil gektaridan 60 tsentnerdan paxta terib olishini aytdi.

Viloyat rahbari "Mezon" tajribasi o'zini oqlaganini aytdi. Barcha tumanlar sektorlari rahbarlari, fermerlar tajribani ko'rish va o'rganish uchun „ Mezon " fermer xo'jaligida ko'rgazmali seminar o'tkazish tavsiyasini berdi.

Yozyovon tumani hokimligi axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-09-13 03:57:30